

## “TO HANUZ SAQLAB KELUR BOBUR, MUQIMIY SHONINI”

Tohirjon Mashrabboyev

Oltiariq pedagogika kolleji, O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10527380>

**Annotatsiya.** Maqolada oltiariqlik ijodkorlarning mumtoz adabiyot an'alariga munosabati, izdoshlik masalalari yoritilgan, shuningdek muxammas janrida ijodkorlarning mahorati, mavzu va g'oyalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** mumtoz adabiyot, an'ana, izdoshlik, mahorat, g'oya, badiiyat.

Mumtoz adabiyotimiz bag'riga xazinalar yashiringan ulkan ummonga o'xshaydi. Bu ummon bag'ridagi xazinalardan bahramand bo'lmoq uchun astoydil g'avvoslik ilmini o'rganmoq, izlanmoq kerak. Oltiariq zaminida ham buyuk ajdodlarimiz yaratgan betakror ijod namunalari havas qilgan, undan ilhom olgan ijodkorlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida mumtoz adabiyotimiz an'alari jonkuyarlarining oldingi safida turgan Oltiariq farzandi, O'zekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Erkin Vohidovning mehnatlarini e'tirof etmay iloj yo'q. 60 yillarda nashr etilgan “Yoshlik Devoni” ga kiritilgan g'azallar, qasidalar orqali mumtoz adabiyotimiz an'alariga suyangan holda, faqat Erkin Vohidovga xos bo'lgan uslub yarata oldi. Zamondoshlari hamda bugungi kun ijodkorlariga aruzda ijod qilishlari uchun yangi bir davr boshlab berdi deyish mumkin. Ustozning tashabbusini Anvar Obidjon, Enaxon Siddiqovalar munosib davom ettirdilar. Adabiyotshunosligimizda Erkin Vohidov, Anvar Obidjon, Enaxon Siddiqovalarning ijodi haqida ko'p izlanishlar olib borilgan. Maqolamizda biz Oltiariqda yashab, bu qutlug' an'anaga ergashib kelayotgan ijodkorlar haqida fikr yuritmoqchimiz.

Shoir A'zamjon Oripov qalamiga mansub quyidagi g'azal butun oltiariqlik ijodkorlar nomidan jaranglaganday go'yo:

“Sayr etib kezgan mahalim she'riyat bo'stonini,  
Ko'ksimga payvasta qildim men “Yoshlik devoni”ni.  
Tong emaskim, bitsam g'azal baytiga qonim berib,  
Dilda balki saqlaydurman Mir Alisher qonini.

### {10.4}

Oltiariqlik ijodkorlarning g'azallari ishq- muhabbat, sadoqat, vafo, vatan mavzularida bitilgan:

“Sen uchun zor bu ko'ngil, o'zga bir dildora yo'q,  
Ishq aro ko'nglimdayin zora yo'q, dilpora yo'q.” {6.44}

( Ra'no Ismoilova “Bedor dunyo” kitobidan)

“Jonim qaro ko'zlar qarosindadir,  
Ko'ngli yarolarning yarosindadir  
Og'riq qayda bo'lsa o'shandadir jon  
Shikast topgan tanim a'zosindadir.” {5.34}

( Qabuliyning “Sensizlikda sen ila” kitobidan)

“Ey odamlar, bu zaminni asrangiz ko'z ustida,  
Unda chun Maqsudaning ham O'qbo'yraddek dunyosi bor.” { 8.48}

( Maqsuda Ergasheva “Muslima gullar” kitobidan)

“Matlubaning kamolin ko'r qoshingda ta'zimu yodir.  
Ruhga qanot bo'lgan mehru pardoz bilan bog'landik, do'st.” {7.103}

( Matluba Dehqon qizi “ Qorachiq” kitobidan)

Oltiariqlik shoirlar obrazlar borasida ham mumtoz adabiyotimizga ergashadilar. Ayniqsa, adabiyotimizdagi an'anaviy bo'lgan do'st, oshiq, komil inson, barkamol avlod obrazlari oltiariqlik shoirlar g'azallarida ham yetakchilik qiladi.

“Bir qiyo boqqach Karimning qalbini o't oldi, dod,  
Lek bu sirni bilmasin hech qachon begonalar.” **{11.4}**  
( Karimjon Tursunov “Ishqida yondirsalar” g'azalidan)

“Baytulhazanda A'zam yotmish ranggi sarg'ayib,  
Bir dona gul sovg'a et, dilbarim, ko'ngil uchun.” **{10.4}**

( A'zam Oripov “Ko'ngil uchun” g'azalidan)  
“O't yoqarlar boshi uzra burnidan in o'tkazib,  
Tunlarin ravshan qulurlar sho'rlikka ozor yetkazib,  
Ne bo'libdi bitta sham, ming quyosh yonganda ham,  
Ulgurib bo'lmas tiriklik mehnatini bitkazib.” **{7.32}**  
( Maqsuda Ergasheva “ Muslima gullar” kitobidan)

Mumtoz adabiyotimizga xavas, intilish, ergashish, ayniqsa, Oltiariq adabiy muhitida ijod qilayotgan shoir va shoirlarning buyuk ijodkorlarimizga bog'lagan muxammaslarida yaqqol ko'rinadi. Muxammas bog'lashning mas'uliyati va yuki, buyuk ustozlarning salobati bor. Oltiariqlik shoirlar ko'proq Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira kabi o'tmish adabiyotimiz darg'alarining g'azallariga muxammas yoki taxmis bog'laganlar. Maqsuda Ergasheva Nodirabegimning

“Nigori gulbadanimni tushimda ko'rsam edi,  
Labi shakkarshikanimni tushimda ko'rsam edi.”

matla'li g'azaliga muxammas bog'lagan

Qabuliy Alisher Navoiyning “Muftalo bo'ldim sango”, “Malul”, Fuzuliyning “Yor etmasmudim”, Mashrabning “ Kelmading bir qoshima”, Mirzo Kenjabekning “O'ldum” radifli g'azallariga muxammas bog'lagan.

Ra'no Ismoilovanning masnaviy yo'lida yozilgan fantastik dostoni, Eminjon Qulmatovning “ Yusuf va Zulayho” qissasi shular jumlasidan. Rabg'uziy, Durbek kabi buyuk namoyondalar qo'l urgan mavzuda asar yozgan ijodkor masnaviy usulida Yusuf alayhissalomning boshidan o'tkazganlarini sodda, ravon til bilan tasvirlagan:

“Kimdadir Yusufday bo'lsa qanoat,  
Iymonu e'tiqod hamda zakovat.  
Maqsadiga yetar shubhasiz, beshak  
Bo'lmasa qalbida g'araz, adovat.” { 12.36}

kabi fikrlar bilan qissani yakunlaydi shoir.

### References:

1. Vohidov.E “Muhabbatnoma”. T. : 1980y
2. Obidjon.A. “ Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni”. T. : 2017y
3. Berdaliyev.O. “ Davr ovozi” gazetasining 90 yilligi”. F.: 2022y
4. Sidiqova.E. “ So'z ustidagi dunyo”. T.: 2001y

5. Hamrolijev.Q. "Sensizlikda sen ila". N. :2019 y
6. Ismoilova.R. "Bedor dunyo".T.: 1992y
7. Matluba Dehqon qizi. " Qorachiq". T.: 1992y
8. Ergasheva.M. " Muslima gullar". T.: 2019y
9. Azizov.A. "Muhabbat ertaklari".T.: 2010y
10. Oripov.A "Paxta uchun" gazetasi. 1983 yil 6 avgust soni
11. Tursunov.K "Paxta uchun" gazetasi 1984 yil 5 iyul soni
12. Qulmatov. E. "Yusuf va Zulayho". A.: 2006y